



TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SANOAT KORXONALARI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI FAOLLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Xusanova Maloxat Mengnorovna
Toshkent arxitektura-qurilish instituti
ORCID: 0009 0000 6042 8584
xusanovamalohat@tiet.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalari mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan ulushi hamda sanoat mahsulotining raqobatbardoshlik darajasini oshirish yo'nalishlari, sanoat korxonalari transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bosqichlari va sanoat korxonalari aktivlarining tasniflanishi, sanoat korxonalari faoliyatini innovatsion salohiyatini iqtisodiy-moliyaviy natijalariga ko'ra baholashning o'ziga xos xususiyalari ochib berilgan hamda ular bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, transformatsiya jarayonlari, iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat tarmoqlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ijtimoiy-iqtisodiy missiya.

ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ ЗА СЧЕТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ

Хусанова Малохат Менгноровна
Ташкентский архитектурно –
строительный институт

Аннотация. В данной статье раскрыты вклад отраслей экономики страны в национальную экономику и направления повышения уровня конкурентоспособности промышленной продукции, этапы реализации процессов трансформации промышленных предприятий и классификация активов промышленных предприятий, особенности оценки инновационного потенциала промышленных предприятий по экономико-финансовым результатам, разработаны научные и практические рекомендации по ним.

Ключевые слова: промышленное предприятие, процессы трансформации, отрасли экономики, отрасли промышленности, организационно-экономический механизм, социально-экономическая миссия.

OPPORTUNITIES TO INCREASE THE ACTIVITY OF TRANSFORMATIONAL PROCESSES OF INDUSTRIAL ENTERPRISES THROUGH THE IMPROVEMENT OF ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS

Khusanova Malokhat Mengnorovna

Tashkent Institute of architecture and construction

Annotation. *This article reveals the share that industries contribute to the national economy of the sectors of the country's economy and the specific features of improving the level of competitiveness of industrial products, stages of implementation of transformation processes of industrial enterprises and classification of assets of industrial enterprises, assessment of the innovative potential of industrial enterprises according to economic and financial results, scientific and practical recommendations.*

Keywords: *industrial enterprise, transformation processes, sectors of the economy, industries, organizational and economic mechanism, socio-economic mission.*

Kirish.

Mamlakatimizda korportiv tuzilmalarning eng ko'p shakllangan ko'rinishlarida biri bu – aksiyadorlik jamiyatlaridir. Aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiyotning barcha jabhalari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha kuchaytiradigan, bo'sh pul mablag'larini ishlab chiqarishga jalb etadigan, texnika taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan, ish unumdorligini oshiruvchi mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan korxonalaridir. Ularning rivojlanishi, ravnaq topishi ishlab chiqarish kuchlarini bir tomonlama rivojlanishiga chek qo'yadi, mamlakatda mavjud tabiiy boyliklardan, xomashyo hamda mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkonini tug'diradi.

Sanoat korxonalari mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan ulushi hamda mahsulotining raqobatbardoshlik darajasini oshirishda katta ahamitga ega. Aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanganlik holati korxonalarining innovatsion salohiyati darajasiga bog'liq bo'lib, ularni faoliyat turiga qarab quyidagi to'rt guruhga ajratib, faoliyatlarini baholab borish maqsadga muvofiq:

- birinchi guruhga yirik raqobatbardoshlik salohiyatiga ega bo'lgan, jahon bozoriga o'z faoliyati orqali ta'sir ko'rsata oladigan tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini kiritishimiz mumkin. Bu guruhga yoqilg'i-energetika majmuasiga oid faoliyatni kiritishimiz mumkin;

- ikkinchi guruhga jahon bozorida raqobatlasha oladigan salohiyatga ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari o'rin egallaydi. Mazkur guruhga mashinasozlik, kimyo sanoati va rangli metallurgiya sohasida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini kiritish mumkin;

- uchinchi guruhni esa agrosanoat majmuasi, yengil va oziq-ovqat sanoati va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etadi. Ularning mahsulotlari, asosan ichki bozorga yo'naltirilgan.

- to'rtinchi guruhga raqamli texnologiyalar asosida faoliyat olib boruvchi kommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarini ta'kidlashimiz mumkin.

O'zbekistonda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini rivojlantirish, korxonalarda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, ularning innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish va bu asosda korxonalarining innovatsion boshqarish tizimini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tadbiiq qilish" vazifalari belgilab berilgan (Farmon, 2022). Mazkur vazifalarni amalga oshirishda sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni joriy qilish, ularni boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash, boshqarish tizimi bilan bog'liq omillarni aniqlash, korxonalarining ilmiy-ishlab chiqarish

salohiyatidan samarali foydalanish, innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tadqiq qilish hamda samarali joriy etish yo'llarini aniqlash, innovatsion yo'nalishda rivojlanayotgan korxonalarining ishlab chiqarish hajmini oshirish, korxonalarining innovatsion yo'nalishdagi xarajatlarini iqtisodiyotga ta'sirini prognoz parametrlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Umuman olganda sanoat korxonalarida transformatsiya tushunchasini qo'llanilishi nisbatan yangi amaliyot bo'lib, bu atamaning iqtisodiy mazmuni bo'yicha amaldagi qonunchiligimizda unga huquqiy ta'rif berilmagan. Ammo Yevropa va G'arb mamlakatlarining iqtisodiy adabiyotlarda transformatsiya tushunchasiga ko'plab ta'riflar keltirib o'tilgan. Umuman olganda transformatsiya tushunchasi bu - iqtisodiy faoliyatning tarkibi, shakli, usullari va yo'nalishini o'zgartirish hisoblanadi. Iqtisodiy jarayonlarda transformatsiya tushunchasini talqin etishda iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish, liberalizatsiya, mulk shaklini o'zgarishi, xususiylashtirish kabi iboralardan foydalanadilar (Хузина, 2010).

Transformatsiya jarayonlari bevosita investitsiyalarni aksiyadorlik jamiyatlariga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa investitsiyalarning milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibini takomillashuviga ta'sirini tadqiq etishni yanada dolzarb masalaga aylantiradi. Bu borada xopijlik olimlap qatopida Y.Shumpeter, Dj.Keyns, R.K.Xarrod, K.Makkonel, S.Bryu, R.Kan, R.Agion, D.Asemoglu, S.Djonson, Dj.Robinson, E.Xansen, G.Mensh, K.N.Oppenlander, N.G.Menkyu, D.Gelbreyt, D.Klark, S.Dj.Uinter, P.F.Druker va boshqalarni kiritish mumkin.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.Gulyamov, A.V.Vahabov, A.O'lmasov, S.V.Chepel, X.P.Abulqosimov, T.S.Pasulov, T.T.Jo'paev, A.A.Mamatov, D.X.Xasanova, P.Z.Xoshimov, N.G.Muminov va boshqalarning ilmiy izlanishlapida investitsion muhit va investitsion salohiyatni rivojlantirishining ilmiymetodologik asoslarini takomillashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotning tarmoq tarkibini takomillashtirishga investitsiyalarning ta'siriga oid masalalap atpoflich a o'rganilgan.

A. Ортиқовнинг фикрига кўра, sanoat bu - ham ijtimoiy ham iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Sanoat obyektiv reallik, ya'ni borliqning jamiyatda aks etishidir. Ushbu tarmoq, ya'ni ne'matlar ishlab chiqarishning uchun alohida sohasi bo'lib, unda ishlab chiqarish uchun zaruriy predmet va ishchi kuchi taqsimotining takomillashishi bilan nazariy jihatdan bog'liqdir. Sanoat bir tomondan obyektiv borliqning eng muhim hodisalari orasida ma'lum bir vaqtda yaratilgan, tegishli qonun va qoidalar natijasida rivoj topgan soha hisoblanadi (Ortiqov, 2014).

A. P Buevicha va boshqalarning tadqiqotlarida quyidagilar ta'kidlanadi. «Hozirgi kundagi geosiyosiy vaziyatning taranglashuvi milliy iqtisodiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lgan sanoat ishlab chiqarishini raqobatbardosh korxonalar sifatida rivojlantirish hisoblanadi. Buning uchun integratsiya hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarni vaqtinchalik yoki doimiy ravishda kooperatsiya yoki konsentratsiya asosida birlashtirish amalga oshiriladi» (Буевича и друг., 2021).

G.G. Xuzinaning ta'kidlashicha, «Sanoat korxonalarida transformatsiya tushunchasini qo'llanilishi nisbatan yangi amaliyot bo'lib, bu atamaning iqtisodiy mazmuni bo'yicha amaldagi qonunchiligimizda unga huquqiy ta'rif berilmagan. Ammo Yevropa va G'arb mamlakatlarining iqtisodiy adabiyotlarda transformatsiya tushunchasiga ko'plab ta'riflar keltirib o'tilgan. Umuman olganda transformatsiya tushunchasi bu - iqtisodiy faoliyatning tarkibi, shakli, usullari va yo'nalishini o'zgartirish hisoblanadi. Iqtisodiy jarayonlarda transformatsiya tushunchasini talqin etishda iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish, liberalizatsiya, mulk shaklini o'zgarishi, xususiylashtirish kabi iboralardan foydalanadilar» (Хузина, 2010).

A.K. Kochnevaning ilmiy qarashlariga ko'ra, sanoat tarmog'i milliy iqtisodiyotimizning ham asosiy tarmog'i bo'lib, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining rivojlanish jarayonini jadallashtiradi. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida innovatsiyalar sur'atini oshirish va shu asosda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hayotiy siklini qisqartirish zamonaviy rivojlanishning eng

muhim tendensiyalaridan biridir (Кочнева, 2016). AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi, shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi sanoatlashgan mamlakatlari va Xitoyda sanoat korxonalarining innovatsion faolligini oshirish orqali yalpi ichki mahsulotning 75-90 foizga o'sishiga erishilmoqda.

O'zbekiston uchun sanoat korxonalarining innovatsion faolligini oshirish eng muhim strategik vazifa bo'lib, uni hal qilish nafaqat mamlakatning rivojlanishini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasiga, balki mamlakat iqtisodiyotini global iqtisodiy tizimga aylantirishga ham bog'liq. Sanoat korxonalarining innovatsion faolligini oshirish innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'paytirishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali sanoat korxonalarini transformatsiya jarayonlari faolligini oshirish imkoniyatlari bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fikrlariga tayangan holda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash, emperik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullari orqali sanoat korxonalarini faoliyatini boshqarishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha tavsiflar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Ta'kidlash joizki, aksiyadorlik jamiyatlarida qo'shilgan qiymat ulushining har xil bo'lishini asosiy sabablaridan biri bu ba'zi korxonalaridagi innovatsion salohiyatning qoniqarli daraja emasligidir. Chunki jahon, milliy va mahalliy bozorlarda sanoat mahsulotlari bahosining o'zgaruvchanligi va ularga talabning beqarorligi, ishlab chiqarishning texnologik va texnik jihozlanish jihatidan farq qilishi, qimmatli qog'ozlar bozorining sust rivojlanganligi kabi boshqa bir qator omillar aksiyadorlik jamiyatlarida turlicha qo'shilgan qiymat yaratilishining asosiy sabablari bo'lmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion siyosati o'zining tavsifi, vazifasi, xususiyati, ko'lami, resurslar hajmi kabi omillarga qarab farqlanadi. O'zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion siyosatni amalga oshirish uchun korxonalarda muayyan boshqaruv strategiyalarni ishlab chiqilishi lozim bo'lib, ularning maqsadi innovatsion dasturning samarali tatbiq etilishini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Bunday boshqaruv mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- innovatsion sohadagi ijobiy o'zgarishlar uchun qonuniy shart-sharoitlarni shakllantirish, ya'ni qonunchilikka tegishli huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari va kreditlarni joriy qilish hisobiga ilmiy, yuqori texnologik ishlab chiqarish yo'nalishlariga mablag' ajratayotgan investorlar va tashkilotlarni (innovatsiyalarni o'zlashtirish davrida) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- innovatsion faoliyatni yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish;
- mahsulotlarni tashqi bozorda sotish bo'yicha qo'shma korxonalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, innovatsion mahsulotlarni chet ellarda reklama qilish, innovatsion loyihalar bo'yicha axborot almashish uchun xalqaro axborot tizimlariga ulanish;
- innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish, davlat kafolatlari asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun asbob-uskunalar, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, nou-xau va texnologiyalarga litsenziyalar xarid qilish uchun xorijiy kredit liniyalaridan kvotalar ajratilishini ta'minlash;
- noyob ilmiy asbob-uskunalar lizingini rivojlantirish.

Bugungi kunda iqtisodiyotning globalashuvi natijasida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlanishi har bir tadbirkordan o'zining imkoniyatlari, izlanuvchanlik qobiliyati innovatsion mahsulot yaratish va zamonaviy xizmat ko'rsatish, o'z ishini ustasi kabi sifatning o'zida mavjudligini aniq o'lchay bilishini taqozo etmoqda.

Korxonalar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy missiyasi va maqsadini samarali amalga oshirish uchun innovatsion asosda barqaror rivojlanishi zarur. Shu bilan birga korxonalar uchun manfaatdor, yuqori darajada daromad keltiradigan ishlanmalar va yangiliklarni qo'llab-quvvatlash, energiya, resurs tejamliligini ta'minlovchi samarali ilmiy hajmdor texnologiyalar intellektual tizimlarni amaliyotga joriy etadigan transformatsion jarayonlarni boshqarishning strategik elementlarini quyidagi ko'rinishda ifodalashimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Transformatsiya jarayoni bosqichlari

Rasmdagi ma'lumotlariga ko'ra, boshqaruv strategiya elementlari korxonada transformatsiya jarayonlarning samaradorligini oshirishga ta'sir etishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Transformatsiya jarayonlarni strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning iqtisodiy jihatlari ayni paytda ish jarayonida yuqori unumli uskunalar, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish hamda texnik taraqqiyot va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlovchi dastaklar orqali namoyon bo'ladi.

Tahlillar shu narsani ko'rsatmoqdaki, ayrim korxonalar menejerlari hozirgacha milliy va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilmasligi, iste'molchi talabi va didini o'rganmasligi, korxonaning boshqarish mezoniga nisbatan qaysi yo'nalishda barqaror raqobatli ustunlikka erishish imkoniyatlarini aniqlay olmasligi korxonalarining raqobat kurashida muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelmoqda.

Demak, yuqoridagi mulohazalar aksiyadorlik jamiyatlari raqobatdoshligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida transformatsiya jarayonlarni strategik boshqarish ekanligini

ko'rsatadi. Chunki transformatsiya jarayonlari strategiyasi raqobatchilarga nisbatan mazkur korxonalar salohiyati va kuchini mustahkamlashga qaratilgan, qo'yilgan maqsadlarga erishishning o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui hisoblanadi. Bu esa korxonalar boshqaruv strategiyasini to'g'ri tanlashga, mahsulot raqobatdoshligini oshirish mexanizmlarini samarali tashkil etishga, ishlab chiqarish uchun ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Pirovard natijada korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga sharoit yaratiladi.

Shuning uchun korxonalarda transformatsiyalash jarayonlarga bevosita mas'ul menejerlardan yangi texnologiya, yangi ishlab chiqarish va yangi xizmat turlarini taklif etuvchi, har qanday imkoniyatdan maksimal foydalanuvchi, tashabbuskor, boshqaruvchi, ishbilarmon, yangilikka intiluvchi xususiyatlarga ega bo'lgan malakali mutaxassis bo'lishni talab etmoqda.

Hozirgi davrda barcha turdagi davlat, nodavlat boshqaruv organlaridan tortib kichik va yirik biznes sub'ektlarigacha innovatsiyalarni boshqarishda ilmiy-nazariy usullardan foydalanishga ehtiyoj sezmoqda. Mazkur ehtiyoj mamlakatda innovatsion muhitni barpo etish, xo'jalik sub'ektlarini innovatsion faolligini oshirish, innovatsion jarayonlarni to'g'ri tashkil etish va boshqarish strategiyasini ishlab chiqishni zaruratga aylantirdi.

Bugungi kunda yuqorida ta'kidlab o'tilgan holatlar O'zbekiston uchun yangi o'rganilayotgan soha bo'lganligi sababli mamlakatimizda rivojlangan mamlakatlarning innovatsion siyosati borasidagi tajribasini o'rganish asosida milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tadbirkorlik sohasini texnik hamda texnologik jihatdan yangilashga katta e'tibor berilayotganligini ta'kidlashimiz joiz.

Har qanday iqtisodiy va ilmiy-innovatsion rivojlanish o'z-o'zidan bo'la olmaydi. Uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan qonunchilik asosi va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Demak, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida samarali ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish borasidagi xususiy mulkchilik masalalariga e'tibor qaratilishi, uni davlat tomonidan ishonchli kafolatlash tizimini yaratish bevosita kichik korxonalaridan tortib yirik korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida innovatsion muhitni paydo bo'lishini ta'minlaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, davlat tomonidan aksiyadorlarni huquqlarini himoya qilinishi, yangi g'oyalarni rag'batlantirilishi hamda xususiy mulkchilik mexanizmlarini yanada takomillashuvi iqtisodiyotni samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri bo'lgan iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda amalda ushbu strategiyani joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi davlat tomonidan samarali va izchil amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati, rivojlangan xorij tajribasi hamda innovatsion muhitni yanada jozibadorligini oshirish mexanizmlariga bog'liq bo'lib, keng ko'lamda o'rganilishi zarur dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion jarayonlarning intensivligi, natijadorligi va bozor qonunlariga moslasha olishi milliy innovatsion tizimning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi.

Korporativ boshqaruv sohasidagi mutaxassislar, tadbirkorlar, mulkdorlar, tadqiqotchi va olimlar mazkur muammoning yechimiga milliy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda rivojlangan xorij tajribasini qo'llash va ular bilan o'zaro hamkorlik tizimini ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishadi. Chunki jahon bozorida raqobat muhitini kuchayib borishi mahsulotlar hayotiylik davrini keskin qisqarishiga, bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlarini tez o'zgarishiga olib kelmoqda. Natijada har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni hayotiy zaruriyatga aylantirmoqda. Bu esa mamlakatning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va uni samarali boshqarishni talab etadi.

Tadqiqotlarimizda korporativ tuzilmalarning innovatsion jarayonlarini faollashtirishga ta'sir etadigan muhim omillardan biri bo'lgan innovatsion salohiyatni baholash va uni oshirish

bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, boshqaruv jarayonida to'g'ri qarorlarni qabul qilishda ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanish muhimdir. Shuning uchun tadqiqot ob'ekti bo'lgan sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni baholash maqsadida ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanamiz. Oldingi paragraflarlarda innovatsion salohiyatga boshqaruv nuqtai nazaridan xodimlar salohiyati, iqtisodiy ko'rsatkichlar, korxonaning texnologik darajasi, innovatsion faolligi hamda tashkiliy boshqaruv holati kabi omillar ta'sir etishini ta'kidlab o'tgan edik.

Tadqiqot ob'ekti sifatida sanoat korxonalarida faoliyatini innovatsion salohiyatini iqtisodiy-moliyaviy natijalariga ko'ra baholaydigan bo'lsak, bularga moddiy, nomoddiy, moliyaviy aktivlar hamda muddati uzaytirilgan debitorlik qarzlari ko'rsatkichlarini kiritishimiz mumkin. Masalan, nomoddiy aktiv asosan ishlab chiqarish vositalarigina asosiy kapital sifatida ko'riladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan olinadigan daromadlar sababchisi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jamiyatning rivojlanish bosqichida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidagi ishlab chiqarish omillaridan bo'lgan kapitalning tarkibiy qismi bo'lgan asosiy kapital qatorida nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar kabi aktivlar vujudga kela boshlaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatini baholash, innovatsion faolligini tahlil etishga iqtisodchi mutaxassislar tomonidan yetarlicha e'tibor berilmagan. Tahlillarni umumlashtirib shu narsani aytish mumkinki, innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishda korxonalar aktivlari holatini doimiy monitoring qilib borish, aktivlarni hisobga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga boshqaruv uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilishda ularni quyidagi tartibda tasniflash va tavsiflash mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Sanoat korxonalarida aktivlarining tasniflanishi

Tasnifi	Tavsifi	Tarkibi
Moddiy aktivlari	Korxonalar faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan moddiy mablag'lar	- asosiy vositalar; - uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; - kapital qo'yilmalar; - o'rnatiladigan jihozlar;
Nomoddiy aktivlari	Korxonalar faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan, identifikatsiyalanuvchi, moddiy buumlashgan shaklga ega bo'lmagan aktivlar	- patent; - savdo markasi; - tovar belgisi; - dasturiy ta'minot; - yerdan foydalanish huquqi; - tashkiliy xarajatlar; - franchayz; - mualliflik xuquqi; - gudvill
Moliyaviy aktivlari	Kelgusida foiz (dividend), ulush ko'rinishida daromad olish maqsadida boshqa korxonalar faoliyatiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan mablag'lar	- qimmatbaho qog'ozlar; - avlod korxonalariga investitsiyalar; - qaram xo'jaliklarga investitsiyalar; - xorijiy kapitali korxonalariga investitsiyalar
Muddati uzaytirilgan debitor qarzlari va kechiktirilgan xarajatlari	Bir yildan uzoq muddatga uzaytirilgan debitorlik qarzlari va kechiktirilgan xarajatlar	- olinadigan veksellar; - uzoq muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar; - xodimlarning qarzlari bo'yicha to'lovlar; - vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad solig'i; - kechiktirilgan qarzlari bo'yicha diskontlar

Asosiy vositalar bilan bir qatorda nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital qo'yilmalar, kechiktirilgan xarajatlar va debitorlik qarzlarni ham aks ettirish zaruriyati kelib chiqdi. Shuning uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida innovasion faoliyat natijadorligini aniqlashda ishtirok etadigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar deb e'tirof etilib, ular shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital) va joriy aktivlar (aylanma kapital) kabi guruhlarga ajratiladi. Bunday guruhlarga ajratishning asosini «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun» tashkil qiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy konsepsiyasidir.

Aktivlarning uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlari ajratilishi, ularning bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog'liqligi kapital hisobining iqtisodiy konsepsiyasini tashkil etadi. Ushbu aktivlarning xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatidagi ishtiroki va daromad olishdagi ulushlari asosiy kapitalga aynan o'xshamasa-da, lekin korxonada faoliyatida bir doiraviy aylanishdan ko'ra ko'proq muddatda ishtirok etishlari va daromad olishga sababchi bo'lishlari asosiy kapitalga nisbatan o'xshashlikni keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda so'nggi paytlarda innovasion jarayonlarni rivojlantirish, innovasion salohiyatni oshirish va ularni samarali boshqarishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, iqtisodiyotimizning turli jabhalarida joriy etilayotgan innovasion ishlanmalar samaradorligini yanada oshirish va bu o'rinda hozirgi zamon texnologiyalarini tatbiq etish, intellektual va xususiy mulk tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, jahon intellektual mulk muhofazasi tizimi rivojlanishi tendensiyasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston ham intellektual mulk tizimining moslashuvchan, samarali va inson ijodiy mahsulini ishonchli muhofazasini ta'minlaydigan, zamonaviy va raqobatbardosh modelini yaratishga intilmoqda. Shu asnda O'zbekistonda innovasion salohiyatni shakllanishiga sharoit yaratilmoqda. Milliy innovasion tizimni rivojlantirishning nisbatan yangi usullarini tatbiq etish bilan bir qatorda quyidagi masalalarga ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi talab etiladi:

- iqtisodiyotning innovasion ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- milliy innovasion tizimning huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;
- innovasion infratuzilmani yaratish va rivojlantirish;
- amaliy va fundamental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish, xususiy mulk egalari hamda tadqiqotchilar va oliy ta'lim muassasalari o'zaro integratsiyasini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishga ilmiy hajmdor yuqori texnologiyalarni joriy etish;
- innovasion mahsulotlarni tijoratlashtirish;
- iqtisodiyotning ustuvor sohalariga innovasion menejment usullarini tatbiq etish.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni echimini ilmiy asoslash iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirish, innovasion jarayonlarni faollashtirish, innovasion faoliyatni rag'batlantirish hamda innovasion infratuzilmani shakllantirish imkonini beradi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi sub'ektlarning innovasion faoliyati quyidagi xususiyatlarni doimiy ravishda oshirib borishni taqozo etadi:

- amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish;
- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish;
- ekologik jihatdan barcha me'yorlarga to'la javob berish;
- ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar tannaxrlarini pasaytirish hamda ularning iste'mol va sifat xususiyatlarini yaxshilash.

Demak, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda milliy innovasion tizimni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini e'tiborga olish mamlakatda innovasion muhitni yaxshilash bilan birga istiqbolda texnologik jihatdan yangi, sezilarli darajada takomillashgan

ishlab chiqarish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar uchun innovasion mahsulotlar etkazib berishga ijobiy ta'sir etadi.

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash borasida quyidagi omillarni tekshirish zarur: texnologik jarayon rolining oshishi, an'anaviy xomashyo turlaridan foydalanishning mumkin emasligi; xavfli bozor pozitsiyasi, raqobatchilarning bosimi, tashqi tez o'zgaruvchanlik, integratsiya hamda globallasuv jarayonlari. Keyingi yillarda mazkur omillarning rivojlanish holatiga ta'sir doirasi kuchayib bormoqda, mahsulotning hayotiy sikli sezilarli darajada qisqarmoqda, tashqi muhit korxonalar faoliyatiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda.

Sanoat korxonasi innovatsion rivojlanishining asosiy maqsadi - joriy etilayotgan texnologik yechimlar, boshqaruvning yangi usullari, yangi mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlar tufayli ichki omillarni maqsadli ravishda o'zgartirish orqali raqobatdosh ustunliklarni oshirish, uning iqtisodiy foydasini saqlab qolishdir.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-165-son Farmoni, 06.07.2022 y. <https://lex.uz/docs/6102462>

Ortiqov A. (2014) "Sanoat-iqtisodiyoti".-Darslik. .T-2014. 7-bet// <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/10/34-y>.

Бувевича А. П., и друг. (2021) Институты в условиях трансформации экономики. Монография. – Прометей, 266 с.

Кочнева А.К. (2016) Инновационная индустриализация как современная форма реализации промышленной политики государства / А. К. Кочнева // НПЖ. № 3 (43). – С. 21-26.

Хузина Г.Г. (2010) Сущность трансформационного процесса в экономической системе // Проблемы современной экономики, Но4(36), с.61-65.